

**PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF FORMING NATIONAL
PRIDE AND PATRIOTISM AMONG PRIMARY SCHOOL
STUDENTS**

K.Sh. Nishonova

Lecturer at Fergana State University,
Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences

Muazzamxon Abduraxmonova

Student of Group 23.144,
Fergana State University

Abstract. This article analyzes the issues of forming national pride and feelings of patriotism in students, their pedagogical foundations, their importance in the educational process, and effective pedagogical approaches. The article studies the scientific and theoretical aspects of national values, patriotic education, and raising the spirituality of youth.

Keywords: national pride, patriotism, education, pedagogical foundations, national values, young generation, spirituality.

**MAVZU: BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QUVCHILARIDA MILLIY
G‘URUR VA VATANPARVARLIK TUYG‘ULARINI
SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI**

*FarDU o‘qituvchisi, pedagogika fanlari bo‘yicha
falsafa doktori (PhD) K.Sh.Nishonova*

FarDU 23.144-guruh talabasi Muazzamxon Abduraxmonova

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘quvchilarning shaxsida milliy g‘urur va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish masalalari, ularning pedagogik asoslari, tal‘im-tarbiya jarayonidagi ahamiyati hamda samarali pedagogik yondashuvlar tahlil

gilingan. Maqolada milliy qadriyatlar, vatanparvarlik tarbiyasi va yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishning ilmiy-nazariy jihatlari o'rganilgan.

Kalit so'zlar: milliy g'urur, vatanparvarlik, tarbiya, pedagogik asoslar, milliy qadriyatlar, yosh avlod, ma'naviyat.

KIRISH

Bugungi kunda mustaqil O'zbekiston yoshlarini milliy g'urur va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga ayatlanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning ta'kidlashicha, Biz Vatanimiz ravnaqi va taraqqiyoti, xalqimiz farovonligi uchun o'z hissasini qo'shayotgan yuksak ma'naviyatli, zamonaviy bilimli, har tomonlama kamol topgan yoshlarni tarbiyalashimiz zarur. Shu munosabat bilan ta'lim tizimida milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish pedagogikaning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Milliy g'urur bu shaxsning o'z xalqi, millati, tarixi va madaniyatiga nisbatan ijobiy munosabati, ularni qadrlay bilish va himoya qilishga tayyorlik hissidir. Vatanparvarlik esa insonning o'z Vataniga muhabbati, unga sodiqlik va fidokorlik ko'rsatishi, uning manfaatlarini o'z manfaatlaridan ustun qo'yishidir. Bu ikkala tushuncha bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, yosh avlodni tarbiyalashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

1. Milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasining nazariy asoslari Klassik pedagogika tarixida milliy tarbiya masalalariga katta e'tibor berilgan.

Rus pedagogi K.D.Ushinskiy o'zining "Odam pedagogikasi" asarida shunday yozgan edi: "Har bir xalqning o'z milliy tarbiya tizimi mavjud bo'lib, u xalqning tarixiy tajribasi va milliy xususiyatlariga asoslanadi". Ushinskiy milliy tarbiyani shaxs shakllanishining asosi deb hisoblagan. Haqiqatdan ham shunday. Inson o'zining aql-idroki, fahm-farosati, tarbiyasi va tafakkuri bilan boshqa mavjudotlardan farqlanadi. Inson shakllanishining asosi esa uning tarbiyasi, uni komillik sari yetaklovchi tarbiya

esa milliy tarbiya hisoblanadi. O‘zbek pedagoglari ham bu masalaga katta ahamiyat berganlar.

Professor S.Usmonov Milliy g‘oya va ma’naviyat asoslari asarida ta’kidlaganidek, milliy qadriyatlar yoshlarning shaxsiy sifatlarini shakllantirishda, ularni ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuklashtirishda muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Olim milliy qadriyatlarni o‘rgatishni pedagogik jarayonning markaziga qo‘yishni taklif etgan. Sovet davri pedagogi V.A.Suxomlinskiy “Vatanga muhabbat, milliy g‘urur, ona tili bularning barchasi tug‘ilganidan boshlab bolaning qalbiga singdirilishi kerak”, degan fikrni ilgari surgan. U tarbiyada milliy an’analar va qadriyatlarning rolini alohida ta’kidlagan.

2. Milliy g‘urur va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishda quyidagi pedagogik tamoyillar muhim ahamiyat kasb etadi: Milliylik va umuminsoniylik tamoyili.

Professor G.Nishonova o‘z tadqiqotlarida milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘unligini ta’minlash zarurligini ta’kidlaydi. Milliy tarbiya umuminsoniy qadriyatlarga zid emas, balki ularni boyitadi va o‘z milliy rangi bilan to‘ldiradi, deb yozgan olim. Tarixiylik va zamonaviylik tamoyili. Akademik E.Goziev

takidlaganidek, milliy tarbiya tarixiy tajribaga tayanishi va hozirgi zamon talablariga javob berishi kerak. Bu tamoyil o‘tmish merosini hurmat qilish bilan birga, zamonaviy qarashlarni shakllantirishni nazarda tutadi. Izchillik va uzluksizlik tamoyili. A.S.Makarenko pedagogik ta’sirning tizimlilikini ta’kidlab, Tarbiya jarayoni bir martalik harakatlar bilan emas, balki doimiy va izchil ta’sir ko‘rsatish orqali amalga oshiriladi degan xulosaga kelgan.

3. Milliy g‘urur va vatanparvarlikni shakllantirishning pedagogik usullari Ta’lim-tarbiya jarayonida milliy g‘urur va vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishning turli pedagogik usullaridan foydalaniladi: Og‘zaki usullar: suhbat, hikoya qilish, tushuntirish, maruza. Professor M.Qo‘shanov ta’kidlaganidek, o‘qituvchining jonli so‘zi, milliy qahramonlar haqidagi hikoyalar o‘quvchilar qalbiga chuqur ta’sir qiladi. Amaliy

usullar: milliy bayramlarni nishonlash, tarixiy joylarga sayohatlar uyushtirish, vatanparvarlik mazmunidagi tadbirlar o'tkazish. Bu usullar o'quvchilarda amaliy ko'nikmalar shakllantirishga yordam beradi. N'muna ko'rsatish usuli: milliy qahramonlar, buyuk ajdodlar, zamonaviy namunali shaxslar hayoti va faoliyatini o'rganish. V.A.Suxomlinskiy Na'muna eng kuchli tarbiya vositasi deb ta'kidlagan.

XULOSA

O'quvchilarda milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish bu ko'p qirrali va murakkab pedagogik jarayon bo'lib, u ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida amalga oshirilishi lozim. Tahlillar shuni ko'rsatdiki: Birinchidan, milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasi mustahkam nazariy- metodologik asosga ega bo'lib, u klassik va zamonaviy pedagogika yutug'i hisoblanadi.

K.D.Ushinskiy, V.A.Suxomlinskiy, A.S.Makarenko kabi buyuk pedagoglarning g'oyalari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ikkinchidan, o'zbek pedagoglari S.Usmonov, G.Nishonova, E.G'oziyev, M.Qo'shanov kabi olimlarning tadqiqotlari milliy tarbiya nazariyasini yanada boyitib, uning amaliy tatbiqini ta'minlaydi.

Uchinchidan, milliy gurur va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishning samaradorligi pedagogik tamoyillar (milliylik va umuminsoniylik, tarixiylik va zamonaviylik, izchillik va uzluksizlik)ga rioya qilishga bogliq.

To'rtinchidan, turli pedagogik usullar (og'zaki, amaliy, namuna ko'rsatish)ning kamol toptirish, ularning shaxsiy va fuqarolik sifatlarini rivojlantirishning muhim pedagogik vositasi hisoblanadi. Bu jarayon ta'lim muassasalari, oila va jamiyatning birgalikdagi sa'y-harakatlari natijasida amalga oshirilishi kerak. Majmuaviy qo'llanilishi tarbiya samaradorligini oshiradi. Shunday qilib, milliy g'urur va vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish yosh avlodni kamol toptirish, ularning shaxsiy va fuqarolik sifatlarini rivojlantirishning muhim pedagogik vositasi hisoblanadi. Bu

jarayon ta'lim muassasalari, oila va jamiyatning birgalikdagi sa'y -harakatlari natijasida amalga oshirilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. T: O'zbekiston 2022.
2. Karimov I.A. Yuksak Ma'naviyat ,yengilmas kuch. T: Ma'naviyat 2008.
3. O'zbekiston Respublikasi Ta'lim to'g'risidagi qonuni. T:2020.
4. Usnonov S. Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari T: Sharq , 2015.
5. Nishonova G. Milliy tarbiya: nazariya va amaliyot T: fan 2018.
6. Qo'shanov M. Milliy tarbiya metodikasi. T: Mumtoz so'z 2017.
7. Ushinskiy S.D. Odam pedagogikasi M: Pedagogika 1988.
8. Makarenko A.S Pedagogik asarlar to'plami. M: Pedagogika 1984